

YOSHLARNING ILMIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA ILM-FAN VA INNOVATSION FAOLIYAT



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14772363>

ABDURAHMONOVA Mohichehra Rabbona qizi

*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti,
2-kurs 9a-23-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: MASHARIPOVA Gularam Kamilovna

*Alfraganus university "Ijtimoiy fanlar" kafedrası professori,
falsafa fanlari doktori*

ANNOTATSIYA

Maqolada yoshlarning ilmiy tafakkurini shakllantirishda ilm-fan va innovatsion faoliyatning o'zini ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ilm-fan, madaniy rivojlanish taraqqiyoti kuchaygan sari insonni tarbiyalash, uning qalbini davolash zaruriyati dolzarb muamolardan biri hisoblanadi. SHuningdek, bugungi kunda innovatsion faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

***Kalit so'zlar:** yoshlar, ilmiy tafakkur, ilm-fan, innovatsiya, innovatsion faoliyat, jahon bozori, raqobatbardoshlik, innovatsion siyosat.*

АННОТАЦИЯ

В статье научно обоснована роль науки и инновационной деятельности в формировании научного мышления молодежи. По мере развития науки и культуры необходимость просвещения людей и исцеления их душ становится одной из самых насущных проблем. Также сегодня большое значение имеет развитие инновационной деятельности.

***Ключевые слова:** молодежь, научное мышление, наука, инновации, инновационная деятельность, мировой рынок, конкурентоспособность, инновационная политика.*

ABSTRACT

The article provides a scientific basis for the role of science and innovation in the formation of scientific thinking among young people. As science and culture develop, the need to educate people and heal their souls becomes one of the most pressing problems. Also, the development of innovation is of great importance today.

***Keywords:** youth, scientific thinking, science, innovation, innovation, global market, competitiveness, innovation policy.*

KIRISH

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ustuvor hisoblangan davlat ilmiy-texnika siyosatining mohiyati respublika ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatbardosh bo‘la oladigan, iqtisodiyot tarmoqlari tubdan yangilanishiga imkon beradigan ilmiy va texnologik tadqiqotlarga ko‘maklashishdan iborat. Davlat innovatsion siyosati mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, aholining turmush sifati va darajasini oshirish, texnologik va ekologik xavfsizligini ta‘minlash uchun innovatsion faoliyat ustuvorliklarini tan olishdan kelib chiqib shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Davlat innovatsion siyosatining asosiy maqsadi innovatsion faoliyat uchun mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligining o‘shishi, fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etishni ta‘minlaydigan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratish hamda mamlakatning mudofaa qobiliyatini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini mustahkamlashdan iborat. Ilmiy faoliyat davlat siyosatining eng faol sohasi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Aytish joizki, ilmiy g‘oya bevosita xo‘jalik faoliyatida qo‘llanilishi mumkin emas. Shuning uchun tashkilotlar tadqiqotlarni moliyalashtirishga sekinlik bilan yondashadi, garchi unga katta ehtiyoj sezsa ham. Hozirgi sharoitda davlat biznesning ta‘minlash funksiyasini, aniqrog‘i, ilmiy bilimlar va g‘oyalar bilan ta‘minlashni o‘z zimmasiga olmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar va tadbirkorlarning tinmay izlanishi, ishlab chiqarishga oid yangiliklardan samarali foydalanishga intilishi ham shundandir. Bozor iqtisodiyotining immanent xususiyatlarini tadqiq etgan va tadbirkorlik faoliyatining innovatsiya bilan bog‘liqligini ochib bergan J.SHumpeter fikriga ko‘ra, iqtisodiy izlanishlar – o‘ziga xos tafakkur tarzi, yangiliklarga o‘chlikni, innovatsiyani taqozo etadi [3, 180-182-bb].

Innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o‘rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o‘rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi. “Bugungi kunda dunyoda innovatsion g‘oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz bironta sohaning rivojlanishi mumkin emas” [1, 85-b].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi yangilanish yo‘lini bosib o‘tdi, qator yutuqlarga erishdi va xalqaro e‘tirofga sazovor bo‘ldi. Fanlar akademiyasi muassasalarining jahondagi yirik ilmiy markazlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy aloqalari tenglik va o‘zaro manfaatdorlik asosida sezilarli ravishda kengayib

bormoqda. Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH, Fransiya va Germaniyadagi ilmiy markazlar va institutlar bilan hamkorlik samarali rivojlanmoqda. Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan ko‘plab me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi tufayli ilm-fan va innovatsiya faoliyati sohasidagi asosiy yo‘nalishlar rivojlanish yo‘liga tushib oldi. Ilmiy-texnik salohiyat mustahkamlangani, ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yirik muammolarini hal etishga yo‘naltirilgani, mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini faollashtirish, belgilangan vazifalarni hal etish uchun katta miqdorda valyuta mablag‘lari ajratilayotgani shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek: “Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e’tirof etilgan olimlar ko‘p. Ular o‘z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim. YOsh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich – maktab ta’limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta’minlash zarur. Bu yo‘lda hech narsani ayamaymiz... Jahonning etakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishni zamonning o‘zi talab qilmoqda” [2]. Xorijning etakchi o‘quv va ilmiy muassasalarida ta’lim va ilmiy daraja olgan yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratib berish, ularni rag‘batlantirish choralari ko‘rish kerak.

Insoniyat taraqqiyotiga o‘zining salmoqli xissasini qo‘shgan o‘sha yangiliklari ta’limotlarga qaramasdan, ilm-fan, madaniyat rivojlangan uchunchi ming yillikning boshida ham urushlardan jabr ko‘rayotgan, qiyinchiliklarga duchor bo‘layotgan baxtsiz insonlar xali ham bor. Boz ustiga bunday illatlar yangi shakl va mazmunda yana paydo bo‘lishi davom etmoqda. Aslida, “jamiyat ehtiyojlariga ko‘ra axloqiy jihatdan saqlanib borsa, u ijtimoiylashadi” [4, 229-b.]. Aholisi ijtimoiylashgan jamiyat kuchli jamiyatdir. Zero, kuchli jamiyat – bu inson huquqlari va erkinliklarini, demokartik qadriyatlarini ustuvor biluvchi va inson omilini ro‘yobga chiqaruvchi jamiyatdir [5, 12-b.].

Ijtimoiy faol shaxs esa bu – davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi va jamoaga etakchilik qiluvchi shaxsdir [6, 332-b.].

Eng achinarlisi shundaki, ilm-fan, madaniy rivojlanish taraqqiyoti kuchaygan sari insonni tarbiyalash, uning qalbini davolash zaruriyati shunchalar dolzarb bo‘lib bormoqda. Voqealar ummonida o‘zini “yo‘qotib qo‘ymaslik” zarurati tobora kuchliroq sezilmoqda. Ana shunday sharoitda faqatgina o‘z fikri, tafakkuri, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida rivojlantirishga harakat qilgan inson, xalqgina o‘zini asrab qolishi mumkin. Aslida sog‘lom ma’naviy ehtiyoj inson

qalbini nurga, yaxshilik, ezgulikka to'ldiruvchi, uning yomon illatlardan ximoya qiluvchi vosita hisoblanadi.

O'zbek xalqi o'z milliy-madaniy taraqqiyoti bilan jahonda alohida xurmat va e'zozga ega bo'lgan xalq hisoblanadi. Bu - e'tirof etilgan aksioma. Ana shu milliy-madaniy boylklarni xalqimiz ongi shuhratiga singdirish, ularning qalbiga jo etish asosida millat madaniy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish mumkin. Biz ko'pincha sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish to'g'risida gapiramiz, uning zarurligi xususida o'z muloxazalarimizni beramiz – bu to'g'ri. Ammo, yana shu ham ma'lumki, jahon amaliyotida sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishning umume'tirof etilgan yagona yo'li yo'q. Bunday ehtiyoj, bir tomondan millatning milliy-madaniy tarixiy merosi, jamiyat fuqarolarining mazkur merosga bo'lgan munosabati natijasida shakllansa, boshqa tomondan, davlatning milliy-madaniy merosga, uni fuqarolar tomonidan o'zlashtirishga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Demak, eng avvalo, kattalarda maxsiy namuna bo'lishi lozim.

Ijobiy shaxsiy namuna - o'quvchilar shaxsini shakllantirishda alohida o'rin egallashi mumkin bo'lgan metod bo'lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng ob'ektiv yo'li hisoblanadi. Yoshlar balog'at yoshiga etib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o'rganish jarayonida o'qituvchi-tarbiyachiga, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. O'quvchilar o'zlari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o'zlarini mag'rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. YA.N.Komenskiyning fikricha, «Bola o'qishni o'rganishdan oldin taqlid qilishni o'rganadi» [7, 78-b.]. Taqlid qilish orqali yoshlarning o'z tajribasi qo'shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

Yoshlar qalbi shakllanayotgan qalb hisoblanadi. Bu qalb ma'naviy ideallarni ustun ko'radi. Shu ma'noda “ma'naviy ideal -Insonning etuklik mezonidir” [8, 204-b.]. Olimlarning fikricha, ma'naviy ideal, oxir oqibatda shaxsda fuqarolik hissining umumdavlat darajasida shakllanishiga olib keladi [9, 272-b.]. Shuningdek, yoshlarni allomalar merosi, ilm-fanni rivojlantirish borasidagi nazariyalar o'rganish uchun tadqiqotchi G.K.Masharipovning asarlarini o'qishni tavsiya qilamiz [10, 364 b.; 11, 144 b.; 12, 210 b.; 13, 336-338-bb.].

Xulosa sifatida aytish joizki, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy sohadagi islohotlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'z ifodasini topmoqda. Bugun yurtimizda yoshlarni kamolotga eltuvchi qadriyatlarining qaror topishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Milliy innovatsiya tizimi ilm-fan, sanoat va jamiyat o'rtasida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, innovatsion taraqqiyot ehtiyojlari esa ilmiy faoliyat ravnaqini belgilab beradi va rag'batlantiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 tom. -Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. 85 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatning etakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvdagi nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2016 yil 31 dekabr.
3. Шумпетер Ж. Теория экономического развития. – Москва: Экономика, 1982.- с. 180-182.
4. Клакхон. Зеркало для человека. Введение в антропологии. Санкт-Петербург, «Евроазия», 1998 г., стр. 229.
5. Государства и право. – Ж. 2002 г., №1 стр. 12.
6. Афанасьев В.Т. Системность и общество. – Москва: «Наука», 1989 г., стр. 342.
7. Azizxodjaeva N. N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: 2000 yil, 78-bet.
8. Ильенков Э.В. Философии и культура . – Москва: «Ипл», 1991 г., стр.204.
9. Ионин Л.Г. Социология культуры. – Москва: «Аспект», 2004 г., стр. 272.
10. Masharipova G.K. Xorazm Ma‘mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma‘naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri. Monografiya. – Toshkent, Navro‘z nashriyoti, 2019. - 364 b.
11. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma‘naviy merosining jamiyat hayotidagi o‘rni. Monografiya. – Toshkent, Navro‘z nashriyoti, 2020. – 144 b.
12. Masharipova, G. K. (2021). O ‘rta asrning buyuk kashfiyotlari-xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo ‘shgan hissalar. Monografiya. *Toshkent: Navro ‘z nashriyoti, 202, 210.*
13. Masharipova G.K., Ergashova Sh.The View Of Eastern Thinkers On Youth Education. International Conference on Research Innovations in Multidisciplinary Sciences. Mart 6th-7th. New York USA. 2021. - Pp. 336-338.
14. Masharipova, G. K. (2024). ABU ALI IBN SINONING BORLIQ VA BILISH HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI. *International scientific journal of Biruni, 3(2), 72-80.*